

Jahon banki guruhi ko‘magida O‘zbekiston yangi quyosh elektr stansiyasini va birinchi elektr energiyasi saqlash tizimini quradi

Toshkent, O‘zbekiston, 2024-yil, 21-may— Jahon banki guruhi, Abu Dhabi Future Energy Company PJSC (Masdar) va O‘zbekiston hukumati 250 megavatt (MVt) quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasi va 63 MVt quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimi (BESS) qurilishini moliyalashtirish bo‘yicha kredit bitimlari to‘plamini imzoladilar. Mazkur loyihani amalga oshirish natijasida 75 000 ga yaqin uy xo‘jaliklari uchun ekologik toza elektr energiyasini ishonchli yetkazib berish imkoniyati yaratiladi.

Bu Markaziy Osiyoda qayta tiklanadigan energiya bo‘yicha birinchi shunday tashabbus bo‘lib, unda yangi quyosh elektr stansiyasi infratuzilmasiga elektr energiyasini saqlash tizimi birinchi marta integratsiya qilinadi. Ushbu tizim energiya ta‘minoti barqaror bo‘lishini ta‘minlash va qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishdagi uzilishlarni kamaytirish orqali energiya tizimining samaradorligi va moslashuvchanligini yaxshilaydi.

Loyihani amalga oshirish uchun moliyaviy paket Jahon banki guruhiga kiruvchi Xalqaro moliya korporatsiyasidan (IFC) 53 million dollar miqdoridagi kredit, shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Niderlandiya tadbirkorlikni rivojlantirish tashkiloti (FMO) va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) tomonidan taqdim etilgan 106 million dollarlik kreditlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu mablag‘lar quyosh elektr stansiyasini qurish va ekspluatatsiya qilishga yo‘naltiriladi. IFC, shuningdek, loyihaning foiz stavkalari xatarlarini yaxshiroq boshqarish uchun foiz stavkalari almashinuvini ham taqdim etadi.

Moliyaviy paketga [Jahon banki tomonidan taqdim etilgan 12 million dollar miqdoridagi bank kafolati](#) ham kiritilgan. U O‘zbekiston hukumatining ushbu loyiha bo‘yicha elektr energiyasi yetkazib beruvchisi oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajara olishini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, moliya paketi [Kanada-IFC iqlimni asrash bo‘yicha aralash moliyalashtirish go‘shma dasturi doirasida](#) 20 million dollar hamda OTB tomonidan boshqariladigan [Osiyoning yetakchi xususiy infratuzilma jamg‘armasidan \(LEAP\)](#) 20 million dollar imtiyozli moliyalashtirishni o‘z ichiga oladi.

Buxoro viloyatining Olot tumanida barpo etiladigan bo‘lajak quyosh elektr stansiyasi yiliga 585 gigavatt-soatdan ortiq qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lishi rejalashtirilmoqda. Uning faoliyati atmosferaga chiqadigan issiqxona gazlari chiqindilari hajmini yiliga 327 000 metrik tonnadan ko‘proqqa qisqartiradi.

Mazkur loyiha doirasida yetakchi tranzaksiya maslahatchisi vazifasini bajaruvchi IFC O‘zbekiston hukumatiga tanlov asosida shaffof tender o‘tkazishda ko‘maklashdi. 2022-yil dekabr oyida hukumat qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasida Birlashgan Arab Amirliklarining (BAA) yetakchi kompaniyasi bo‘lgan Masdar ushbu davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo‘yicha [tender g‘olibi](#) bo‘lganligini e‘lon qildi.

Mamlakat iqtisodiyoti va aholisining elektr energiyasiga bo‘lgan talabi ortib borayotganini hisobga olib, O‘zbekiston hukumati 2030-yilgacha quyosh va shamol energiyasi ishlab chiqarishni 25 GVTga yetkazish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu ushbu o‘n yillikning oxirida mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha elektr energiyasining 40 foizini tashkil qiladi.

Ushbu yo‘nalishdagi sa‘y-harakatlar milliy iqtisodiyotning o‘sishiga hissa qo‘shadi, uning ekologik energetika sektoriga o‘tishini ta‘minlaydi, shuningdek, atmosferaga karbonat angidrid chiqindilari chiqishini kamaytirishga (dekarbonizatsiya) xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Jahon banki guruhi O‘zbekistonga xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali 2000 MVt hajmda quyosh energiyasi va 500 MVt hajmda shamol energiyasini ishlab chiqarish uchun quvvatlarni rivojlantirishga ko‘maklashmoqda.

“O‘zbekiston bilan qayta tiklanadigan energiya sohasida hamkorligimiz kengayishda davom etmoqda. Uning natijasi mamlakat aholisiga arzon narxlarda sezilarli miqdorda ekologik toza va barqaror elektr energiyasini etkazib berish bo‘ldi”, – dedi **Xalqaro moliya korporatsiyasining Turkiya va Markaziy Osiyo bo‘yicha direktori Vibke Shlyomer**. “Yangi quyosh elektr stansiyasi va elektr energiyasini saqlash tizimining ishga tushirilishi mamlakat energetika balansida qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini oshiradi. Bundan tashqari, elektrostansiya faoliyati mavjud elektr tarmoqlarini barqarorlashtirishga ko‘maklashadi va uning ishini yaxshilaydi, shu orqali iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro sa‘y-harakatlarga hissa qo‘shadi”.

“Ushbu loyiha doirasida innovatsion yechimlar va texnologiyalardan foydalanish mamlakatning energiya xavfsizligini mustahkamlashga yordam beradi”, – dedi **Jahon banking O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Marko Mantovanelli**. “Jahon banki tomonidan hukumatga taqdim etilayotgan bank kafolati O‘zbekistonda uy xo‘jaliklari va xususiy sektorni qayta tiklanadigan energiya bilan ta‘minlaydigan loyihani amalga oshirish uchun xususiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini berdi”.

Loyihani Masdar kompaniyasiga tegishli “Nur Bukhara Solar” MChJ loyiha kompaniyasi amalga oshiradi. U quyosh elektr stansiyasi va elektr energiyasini saqlash tizimini ishlab chiqish, moliyalashtirish, qurish, boshqarish, ishlatish va unga texnik xizmat ko‘rsatish uchun mas‘ul.

Ikki tomonlama elektr energiyasini sotib olish bo‘yicha kelishuv doirasida loyiha kompaniyasi 25 yil muddat davomida “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatiga elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, energiyani saqlash tizimini 10 yil davomida ekspluatatsiya qilish majburiyatini oladi.

Oldinroq Jahon banki va IFC hukumatni qayta tiklanadigan energiya loyihalarini amalga oshirishda bank kafolatlari, moliyalashtirish, maslahat va texnik xizmatlar ko‘rsatish orqali qo‘llab quvvatlaganlar. Natijada quyidagi loyihalar amalga oshmoqda: Navoiy viloyatida [100 MVt](#)

[quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi](#) (2021-yilda foydalanishga topshirilgan), [Samarqand va Jizzax viloyatlarida qurilayotgan 440 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyalari](#) (qurilish jarayonida), shuningdek [Navoiy viloyatida qurilayotgan 500 MVt quvvatga ega birinchi shamol elektr stansiyasi](#) (qurilish jarayonida).

Buxoro viloyatida yangi loyiha ishga tushirilishi bilan Jahon banki guruhi ko‘magida amalga oshirilayotgan yuqorida aytib o‘tilgan loyihalar doirasida ishlab chiqariladigan qayta tiklanadigan energiyaning umumiy quvvati qariyb 1,3 GVTga yetadi.

Jahon banki guruhi haqida

Jahon banki guruhi kambag‘allikni tugatish va umumiy farovonlikka erishish bo‘yicha global sa‘y-harakatlarda asosiy rol o‘ynaydi. U beshta tashkilotdan iborat: Jahon bankini tashkil etuvchi Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) va Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA); Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC); Ko‘p tomonlama investitsiyalarni kafolatlash agentligi (MIGA); Investitsiya nizolarini hal qilish bo‘yicha xalqaro markaz (ICSID). 100 dan ortiq mamlakatlarda hamkorlikda ushbu tashkilotlar mamlakatlarga rivojlanishning eng dolzarb muammolarini hal qilishda moliyalashtirish, maslahat xizmatlari va boshqa yordamlar ko‘rsatadi. Qo‘shimcha ma‘lumotlar quyidagi veb-saytlarda mavjud: www.worldbank.org, www.miga.org va www.ifc.org

Kanada-IFC iqlimni asrash bo‘yicha aralash moliyalashtirish qo‘shma dasturi haqida

Kanada-IFC iqlimni asrash bo‘yicha aralash moliyalashtirish qo‘shma dasturi iqlim o‘zgarishi oqibatlarini bartaraf etish yo‘lidagi global chora-tadbirlar uchun xususiy kapitalni safarbar etishga qaratilgan. Bu Kanadaning 2015-yilgi Parij kelishuvi doirasida rivojlanayotgan mamlakatlarga issiqxona gazlarini kam chiqaradigan barqaror iqtisodiyotga o‘tishda yordam berish majburiyatini aks ettiradi. Kanadaning iqlim o‘zgarishi oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha global sa‘y-harakatlarga qo‘shgan hissasi haqida batafsil ma‘lumotni quyidagi veb-saytdan olishingiz mumkin: <https://www.canada.ca/en/services/environment/weather/climatechange.html>

Masdar kompaniyasi haqida

Abu Dhabi Future Energy (Masdar) BAAning toza energiya bo‘yicha yetakchisi va dunyodagi eng tez rivojlanayotgan qayta tiklanuvchi energiya kompaniyalaridan biridir. Masdar barqaror rivojlanishning global muammolarini hal qilishda yordam berish maqsadida qayta tiklanadigan energiya va toza vodorod texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bilan shug‘ullanadi. 2006 yilda tashkil etilgan Masdar 40 dan ortiq mamlakatlarda ekologik energetika va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda yordam beradigan loyihalarni ishlab chiqdi va ularda ishtirok etdi. Masdar kompaniyasi Abu-Dabi milliy neft kompaniyasi (ADNOC), Mubadala investitsiya kompaniyasi va Abu-Dabi milliy energetika kompaniyasini (TAQA) birlashtiradi. O‘zining investitsiya portfeli doirasida Masdar 2030 yilga kelib kamida 100 gigavatt (GVt) quvvatga ega qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda.

OAV uchun kontaktlar:

Toshkentda:

Kimbat Ibishova

Elektron manzil: kybyshova@ifc.org

Mirzo Ibragimov

Elektron manzil: mibragimov@worldbank.org